# FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 2 - noyabr 277-11-154-Q/22 Buvayda tuman hokimligi

**Avtomobil yo`llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo`l belgilarini o`rnatishga ruhsat berish haqida**

Tuman hududida yo`l-transport hodisalarini sodir etilishi va tirbandliklar hosil bo`lishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish asosida yo`l harakati qoidalari buzilishi profilaktikasi, yo`l-transport hodisalari va yo`llar tirbandligini oldini olish, yo`llarni saqlash va ularning yo`l belgilari, axborot ko`rsatkichlarini o`rnatish, ushbu orqali yo`l harakatini tartibga solish, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo`l harakati qoidalarini tasdiqlash to`g`risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Buvayda tumani Ichki ishlari bo`limining 2022 yil 13 sentabrdagi 46/5075-sonli xatini ko`rib chiqib va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN**

1. Buvayda tumani Ichki ishlari bo`limining 2022 yil 13 sentabrdagi tumanda yo`l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida avtomobil yo`llariga yo`l belgilarini o`rnatish to`g`risidagi 46/5075-sonli xati inobatga olinsin.

2. Buvayda tumani Yo`llardan foydalanish unitar korxonasi tasarrufidagi 4 K-883 “Yangiqo`rg`on sh – Qo`rg`oncha q – Jov q” avtomobil yo`lining PK-04 kmdan PK 1 km qismiga 3.27 “To`xtash ta’qiqlanadi” ta’qiqlovchi yo`l belgilarini o`rnatishga ruhsat berilsin.

3. Tuman IIB YHXB boshlig`i (I.Umarov), tuman Yo`llardan foydalanish

unitar korxonasi direktori (X.Mamajonov) bilan birgalikda vakolatlari doirasida kelishuv asosida ushbu qarorda ko`rsatilgan yo`l belgilsini me'yoriy xujjatilarda ko`rsatilgan ko`rinishda va balandlikda o`rnatilishini ta'minlash vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati hamda "Buvayda ko`zgusi" ro`znomasida rasmiy e'lon qilingandan so`ng kuchga kiradi.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (A.Soliyeva) ushbu qarorni ro`znomada nashr etilishini va tuman hokimligining veb-saytida joylashtirilishini ta'minlasin.

6. Ushbu qarorni ma'sullarga yetkazish vazifasi tuman hokimligi devonxona bo`limi mudiri Sh.Aliqulov zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari S.Hizirov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Odiljonovich I. B.**

Buvayda tuman hokimining
2022 yil 2 noyabrdagi
277-11-154-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Buvayda tuman hokimining “Avtomobil yo`llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo`l belgilarini o`rnatishga ruhsat berish haqida”gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi yuzasidan

## M A ‘ L U M O T N O M A

28.10.2022 yil Yangiqo`rg`on qishlog`i

**Buvayda tuman hokimining “Avtomobil yo`llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo`l belgilarini o`rnatishga ruhsat berish haqida” gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi o`rganib chiqildi.

Loyiha O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo`l harakati qoidalarini tasdiqlash to`g`risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Buvayda tumani Ichki ishlari bo`limining 2022 yil 13 sentabrdagi 46/5075-sonli xatiga asosan tuman hududida yo`l-transport hodisalari va yo`llar tirbandligini oldini olish, yo`llarni saqlash va ularning yo`l belgilari, axborot ko`rsatkichlarini o`rnatish, ushbu orqali yo`l harakatini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan.

**Buvayda tuman hokimining “Avtomobil yo`llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo`l belgilarini o`rnatishga ruhsat berish haqida” gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi Adliya Vazirligi tomonidan 18.11.2021 yilda 3333-raqam bilan ro`yxatdan o`tkazilgan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish,yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o`tkazish qoidalarini tasdiqlash to`g`risida”gi 15.11.2021 yildagi 19-mx sonly buyurug’i va qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan deb hisoblayman.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi “O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy sora-tadbirlar to`g`risida”gi qarorining 4-bandiga asosan normativ huquqiy hujjatlar loyihasi tuman hokimligi tomonidan 14.10.2022 yilda O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o`tkazilishi uchun joylashtirilgan. Qaror loyihasida jamoatchilik muhokamasi natijalari e’tiborga olingan.

**Buvayda tuman hokimining** mazkur qarori qabul qilinishidan oldin O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yildagi O’RQ-682-sonli “Normativ huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 26-moddasiga ko`ra **Buvayda tuman hokimining** normativ tusga ega bo`lgan ushbu qarori loyihasini qonunchilik talablariga muvofiq ekanligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o`tkazishlik uchun Buvayda tumani Adliya bo`limiga taqdim etish lozim bo`ladi.

Loyiha O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq.

**Buvayda tumani hokimligi**

**yuriskonsulti: B.Raxmonov**

**Buvayda tuman adliya bo`limi**
**boshlig`i ga**

**Buvayda tuman hokimining “Avtomobil yo`llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo`l belgilarini o`rnatishga ruhsat berish haqida” gi** qarori loyihasini O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yuidagi “Normativ huquqiy xujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 26-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o`tkazib berishingizni so`rayman.

**Buvayda tuman hokimi** **B.Ibragimov**